



## LIVAN KEDIR (CEDURUS LIBANI) DARAXTI VA UNING FOYDALI XUSUSIYATLARI

---

*M.G.Maxsudova, T.E.Usmanova*

*Ekologiya kafedrası o'qituvchisi.*

*M.A.Karimov - Ekologiya va atrof-muhit*

*muhofazasi yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya.** Livan kedir (cedurus libani) qarag'aydoshlar oilasiga mansub va doimiy ravishda yashil tusda bo'luvchi, ignabargli juda sekin o'suvchi qadimiy daraxtlardan biri bo'lib hisoblanadi.

**Аннотация.** Ливанский кедр (cedurus libani) принадлежит к семейству сосновых и считается одним из самых медленно растущих древних хвойных деревьев с вечнозеленым делением.

**Kalit so'zlar:** Livan kedir, qadimiy daraxtlar, qubbalar, dekaratsiya, yog'i, suyuqlik, dorivor, vitaminlar kompleksi.

**Ключевые слова:** ливанский кедр, древние деревья, купола, декарбоксилирование, масло, жидкость, лекарственное средство, комплекс витаминов.

**Kirish:** *Livan kedir (cedurus libani)* qarag'aydoshlar oilasiga mansub va doimiy ravishda yashil tusda bo'luvchi, ignabargli juda sekin o'suvchi qadimiy daraxtlardan biri bo'lib hisoblanadi. *Livan kedir* daraxti 1000-1500 ming yildan ortiq umr ko'radi. Bu daraxt urug'idan ko'payadi. Livan kedir daraxti tabiatning injiqliklariga chidamli bu kedir  $-25-30^{\circ}\text{C}$  sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli daraxtlardan hisoblanadi. Bu daraxtlar 25-30 yoshdan boshlab yiliga ikki marta meva beradi. Livan kediri daraxti slindir shakldagi ochiq jigarrang qubbachalarga ega. Qubbalari ayrim jinsli, bir uyali erkak qubbasi juda mayda bahorda o'sib chiqqan novdalar asosida boshqochaga o'xshash cho'ziq shakilda sariq rangda to'p-to'p bo'lib joylashadi. Urg'ochi qubbachalar yakka joylashgan. Erta bahorda o'sib chiqqan yon novdada joylashib oladi. Chunki u shamol uchirib kelgan changlarni o'zida tutib qoladi ularning uzunligi 10-12 santimetr, kengligi esa 4-6 santimetr ga yetadi. Haqiqiy kedir daraxti urug'larini iste'mol qilib bo'lmaydi. Ularning uzunligi 15-18 millimetr, kengligi 5-7 millimetr, qanoti esa 25 millimetr ga yetadi. *Livan kedrining* po'stlog'i to'q kulrang va qoramtir. Yog'ochi qizil rangga ega va bardoshli, kedir daraxtining bo'yi 40-50 metrga, diametri 2,5-3 metrga yetadi.



O‘zidan juda yoqimli hid chiqaradi. Livan kedir daraxti asosan tog‘li hududlarda, dengiz sathidan 1000-2800 metir balandlikda o‘sadi.

Bu daraxt dekaratsiya uchun madaniylashtirsa ham bo‘ladi. Livan kedir daraxti yorug‘sevar daraxtlar toifasiga kiradi. Sersuv yerlarni uncha yoqtirmaydi qurg‘oqchilikga o‘ta chidamli daraxtlardan hisoblanadi. Daraxtga ortiqcha suv tasir ettirilsa ildiz tizimida chrish kasalligi kuzatiladi. Daraxtni o‘rab turgan tuproq qismi ortiqcha suv tasir ettirish natijasida bo‘tqoqa aylansa ildiz tizimi nafas olishi qiyinlashib, natija daraxting o‘limi bilan tugashi mumkin. Bu daraxtni asosan suv kam qurg‘oqchil yerlarga madaniylashtirish respublikamizning voaha hududlariga madaniylashtirish juda foydali bo‘ladi. Livan kedir daraxti 3 ta O‘rta sharq davlatlari da keng tarqalgan, Turkiya, Livan va Suriya tog‘lrida Livan Kediri o‘sadi. Livan kedir qadimda qurilish va kemasozlikda ishlatilgan. Turli hasharotlar zararkunandalar uning yog‘ochiga juda befarq yani istemol qilmasligiga ishonishgan. Livan Kediridan foydalanish haqida birinchi malumotlar qadimgi Misr yulnomalarida ham uchraydi. Shuningdek, bu daraxtlar saroylarni bezashda va ibodat joylarini qurishda ishlatilgan. Afsuski, Livan Kedirining ko‘p yillar davomida nazoratsiz kesilishi, o‘z yurti bo‘lgan Livanda shuningdek, tabiiy o‘sadigan joylarda atrof-muhitning sezilarli darajada yomonlashishi tufayli kedirzorlar hududi qisqardi. Bugungi kunga qadar bu ajoyib ignabargli daraxt Livan hududida sezirali kamaydi. Livan kedir daraxti shifobaxshligi va dorivor daraxtligi bilan ham juda qimmatlidir. Kedir dorivorligiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega xomashyo hisoblanadi, chunki uning deyarli barcha tarkibiy qismlari dorivor maqsadlarda ishlatiladi: ignalar, novdalar kurtaklari, yong‘oq qobig‘i, qatron, shuningdek yong‘oqin go‘zi. Bundan tashqari, ikkinchisi dori – darmonlarni yaratishda ishlatiladigan asosiy xomashyo hisoblanadi. Yong‘oq damlamasini qabul qilish siydik pufagi, buyrak va asab tizimining kasalliklaridan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Yillar davomida kedir mevalaridan tayyorlangan “suyuqlik” sil kasalligini davolash uchun keng qo‘llanilib kelingan. Kedir yog‘i dizinfeksiyalash uchun antiseptik ta’sirga ega. Kedir yog‘i inson tanasining bir meyorda o‘shishiga yordam beruvchi A, B va D vitaminlar kompleksiga ega, kedir daraxtidan tayyorlangan moy inson asab tizimini va qon aylanish sistemasini yaxshilaydi va teri kasaliklariga ijobiy tasir qiladi. Asab tizimi buzilgan va uyqusizlikga chalingan insonlar uchun kediridan tayyorlangan maxsus yostiqlikhalarda uxlash bu xolatni ijobiy tomonga yaxshilaydi. Nafas yo‘li kasalligiga ega insonlar kedir bog‘larida sayir qilishi zarur, shu bilan birga yo‘gi ovqat hazim qilishni yaxshilash va immunitet tizimini



mustahkamlash uchun ham ishlatilishi mumkin. kedring asosiy dorivor xususiyatlaridan biri bu yallig'lanishga qarshi samarali ta'sirga egaligidir.

**Xulosa:** Daraxtdagi efir moylari tarkibidagi moddalar yallig'lanishga qarshi kurashish xususiyatlarga ega va tanadagi yallig'lanish jarayonlarini kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari kedirlari mikroblarga qarshi kurashish xususiyatlarga ega. Daraxtdagi efir moylari bakteriyalar zamburug'larni yo'q qilish qobiliyatiga ega bo'lib bu esa shamollash va yuqumli kasalliklarni davolashda samarali vositaga aylantiradi. Shu bilan birga kedir daraxti cho'llanish va yerdagi yashil zonalarining qisqarishiga qarshi kurashishdada muhim ahamiyat kasb etadi. Uning zich barglari namlikni ushlab turishga va tuproq eroziyasini oldini olishga yordam beradi. Yoz oylarida jazirama issiq patida havodagi namlikni bir meyorda ushlab tura oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.«Dendrologiya» A.Q.Qayimov, E.T.Berdiyev. “Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” Toshkent — 2012.
2. Qayimov A.Q. Berdiyev E.T., Hamroyev H.F., Turdiyev S.A. Dendrologia -Toshkent, «Fan va texnologiyalar», 2015.-330 b.
- 3.Гроздов Б.В. «Дендрология» Гослесбумиздат, М-2, 1960 г
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yi
5. Abdullayeva, GM Maxsudova, TE Usmanova “Faragona shahar infrastrukturasi o'simliklarning tutgan o'rni va roli” Proceedings of International Conference on Modern – 2023
6. <https://ziyouz.uz/ajoyibotlar/>
7. Gulnoraхon, M. (2023). FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING TABIATDAN TEJAMLI FAYDALANISH AN'ANALARI. *Journal of new century innovations*, 20(4), 8-13.
8. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). МОРФОЛОГИЯ ПЫЛЬЦЫ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ И ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА. *Theoretical & Applied Science*, (5), 84-87.